

KOSTETSKIY V. A., TANSIQBOYEVA G. M., RAHIMOV R. I.

KONSTITUTSIYA OLAMIGA SAYOHAT

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
6- sinfi uchun o'quv qo'llanma
I qism

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan



TOSHKENT
«YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS»
2014

UO'K: 342.4(075)
67.400.1(50')
K72

Mualliflar jamoasi:

Kostetskiy V. A., Tansiqboyeva G. M., Rahimov R. I.

Metodik ishlanmalar:

Toshpo'latova, M. A., Asadova E. S., Afanasyeva I. V., Solovyeva S. E.

Taqrizchilar:

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent *Sh. X. Zulfiqorov*;
Toshkent viloyat pedagogik kadrlar malakasini oshirish instituti ijtimoiy fanlar
kafedrasini mudiri *M. Abdurahmonova*;

O'qituvchilar:

Madaminov U., Krotova E., Ostanova F.

SHARTLI BELGILAR:



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning
«Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning
«O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobidan



«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va
fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»dan



O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasidan



O'tilgan mavzularni mustah-
kamlash uchun savollar



Eslab qoling!



Mavzu bo'yicha berilgan
topshiriqlar



Faollashtiruvchi savol va
topshiriqlar



Uyga topshiriq



O'quv qo'llanmada **Prezident Islom Karimovning** qonunchilik tashabbuslariga muvofiq **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga** kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar inobatga olingan.

KONSTITUTSIYA VA DAVLAT QONUNLARI

Birinchi sayohat



KONSTITUTSIYA – INSON VA FUQAROLAR HUQUQLARI ASOSIDIR



Jamiyatning demokratiya yo'lida jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir.

Aziz bolajonlar!

Sizlarni o'tgan yili boshlangan Konstitutsiya olamiga sayohatimizni davom ettirishga taklif qilamiz. Bizning harakat yo'nalishimiz makon va zamon orqali o'tganini bir esga olingchi. O'shanda siz kishilar muammolarni hamjihatlikda hal qilish maqsadida davlat tuzganini bilib olgan edingiz. Davlat va fuqaro o'rtasida qanday aloqalar o'rnatilishini hamda fuqaro uchun o'zi mansub bo'lgan davlat ramzlari qanchalik muhim ekanligini tushungan edingiz. Sayohat-darslarimizda barcha mamlakatlar fuqarolari qarshisida jamiyatda muomala qoidalarini o'rnatish, ana shu qoidalardan eng majburiylarini qonunlarga aylantirishdek zarurat qay tariqa yuzaga kelishiga guvoh bo'lgan edingiz. Hammamiz birgalikda barcha qonunlardan eng asosiylarini tanlab olish va davlatning asosiy qonuni — Konstitutsiyani tuzish ham o'ta muhimdir, degan xulosaga kelgan edik.

Endilikda biz bu hujjatni boshqa qonunlardan nimalar farqlab turishini bilamiz:



Konstitutsiya — davlatning asosiy qonuni bo'lib, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir. Konstitutsiya – davlat tuzilishi, davlat boshqaruv shakli, shaxsning huquq, erkinlik va burchlari, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlarini belgilaydi. Konstitutsiya me'yorlari bilan jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlar mustahkamlanadi.



1-topshiriq.

5–6 kishidan bo'lib guruhlarga bo'ling. Insonga o'z mamlakati Konstitutsiyasini bilish nima sababdan muhim ekanligi haqida kamida uchta sababni yozing. Yozganlaringizni boshqa guruhlariniki bilan taqqoslang.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – bu davlat va jamiyat hayotini tartibga solib turuvchi, har bir oilaga, har bir insonga ta'sir o'tkazuvchi jonli, faoliyatdagi mexanizmdir.



2-topshiriq.

Keling, 5-sinfda o'rganilgan mavzular va tushunchalarni birma-bir esga olaylik. Chap ustunchadagi tushunchalarning har biriga o'ng ustunchadagi mos ta'rifni tanlang.

Davlat	umumiy ishlarni hal qilishda ishtirok etish bo'yicha alohida majburiyat va huquqlarga ega bo'lgan kishi
Davlat ramzlari	jamiyatning asosiy negizi
Konstitutsiya	xalq tomonidan saylangan vakil
Qonun chiqaruvchi hokimiyat	qonunlarni ijro etish va kundalik umumiy ishlarni hal qilish asosiy vazifasi bo'lgan davlat hokimiyati tarmog'i
Deputat	qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilan shug'ullanuvchi davlat hokimiyati tarmoqlaridan biri
Fuqaro	egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqi
Oila	gerb, madhiya, bayroq

Mulkdorlik huquqi	umumiy ishlarni hal qilish uchun butun jamiyatni uyushtirish
Ijro etuvchi hokimiyat	davlat tuzilishini mustahkamlab qo'yuvchi asosiy qonun

Yangi o'quv yilida inson huquq va burchlari Konstitutsiya olami bo'ylab sayohatimizda yo'l boshlovchimiz bo'ladi. Sayohatimiz samarasi esa O'zbekiston Konstitutsiyasida bizning qaysi huquqlarimiz kafolatlanganligi, odil sudlov nima ekanligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar voyaga yetmaganlar huquqlarini qay tariqa himoya qilishi lozimligi to'g'risidagi bilimlar bo'lmog'i lozim.

Sayohatimiz siz uchun ajoyib va qiziqarli bo'ladi, deb umid qilamiz. Har qanday faoliyat singari, mavzular ustida ishlash ham sizdan chuqur fikrlashni, kuch-g'ayratni, topqirlikni, boshlagan ishni nihoyasiga yetkazishga intilishni talab qiladi. Qo'lingizdagi kitob yordamida inson huquq va erkinliklari to'g'risidagi eng muhim tushunchalarni o'zlashtirasiz, bu huquqlarning buzilishi sabablarini aniqlaysiz. Siz bilim doirangizni kengaytiruvchi, kishilar o'rtasidagi, inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarga yangicha qarashga imkon beruvchi topshiriqlarni ham bajarishingiz kerak. Siz olingan bilimlardan hayotda foydalanishga o'rganasiz, huquqiy bilimingiz anchayin ortadi. Bu esa barcha sa'y-harakatlar uchun chinakam mukofotdir.

Biz umid qilamizki, siz qonunlarni shunchaki yodlamaysiz. O'qituvchiga, ota-onangizga, katta odamlarga, o'z tengqurlaringizga savollar bering. Chunki haqiqiy ta'lim — bu ijod, to'g'ri yechimlar va zarur bilimlarni egallash yo'lidagi izlanishdir.

Qani, azizlar, sayohat sizni kutmoqda!

5-sinfda o‘tilganlarni takrorlaymiz

1. Davlat deganda nimani tushunasiz?
2. Demokratiya — bu...
3. Qonun — bu...
4. Konstitutsiya — bu...
5. Soliq deganda nimani tushunasiz?
6. Huquq deganda nimani tushunasiz?
7. Qonunbuzarlik deganda nimani tushunasiz?
8. Muqaddima — bu...
9. Referendum — bu...
10. Davlat kim uchun xizmat qiladi va kimning manfaatlarini himoya qiladi?
11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq mamlakatimizda davlat hokimiyatining birdan bir manbai kim?
12. O‘quvchilarning asosiy kundalik huquq va burchlari qaysi hujjatda o‘z aksini topgan?
13. Davlatning asosiy vazifasi nimadan iborat?
14. O‘zbekistondagi davlat hokimiyati qaysi hokimiyatlarga bo‘linadi?
15. Mulkdorlik huquqi deganda nimani tushunasiz?
16. O‘zbekiston Respublikasida qonunlar qaysi davlat organi tomonidan qabul qilinadi?
17. Lotinchadan olingan «Konstitutsiya» so‘zining lug‘aviy ma‘nosini aytib bering.



Uyga vazifa

Gazeta va jurnallardan sud va huquqni himoya qiluvchi organlarning davlatimizda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati aks ettirilgan materiallar tanlang.



QONUN NIMA?

Konstitutsiya — davlatning Asosiy qonuni



1. Bu rasmlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qanday huquq va burchlari o'z aksini topgan?
2. Mazkur huquq va burchlarning sizga qanday aloqasi bor deb o'ylaysiz?

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni ekanligi haqida ancha so'z yuritdik. Ammo, qonun nima o'zi? Konstitutsiya mavjud bo'lganda boshqa qonunlarga hojat bormi?

Keling, masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49- va 50-moddalarini o'qib ko'raylik-ch.



«Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir»
(49-modda).

«Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar» (50-modda).

E'tibor qilgan bo'lsangiz, ushbu moddalarda jamiyat uchun juda muhim qoidalar mujassam etilgan bo'lsa-da, ularda, basharti ana shu konstitutsiyaviy normalar buzilsa nima bo'lishi haqida so'z yuritilmagan. O'z fuqarolik burchlarini (majburiyatlarini) ado etmagan fuqarolar qay tariqa jazolanadi? Bu kabi savollarni Konstitutsiyaning deyarli har bir moddasi yuzasidan berish mumkin. Hayotning butun rang-barangligini inobatga olishga qodir moddalar to'plamini tuzish mumkinmi o'zi? Harholda, iloji bo'lmasa kerak. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz uning mazmunini aniqlashtiruvchi, hayotning u yoki bu sohasida insonlar yurish-turishi va muomalasi qoidalarini belgilovchi, inson huquqlarini buzganlik uchun jazolarni nazarda tutuvchi boshqa qonunchilik hujjatlari yaratish uchun asos bo'lib qoladi. Konstitutsiya moddalari asosida qonunlar qabul qilinadi. Qabul qilingan qonunlar davlat va jamiyat hayotida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Xo'sh, bu narsa qandaydir qonun Konstitutsiyaga qaraganda kattaroq ahamiyatga ega, yoki uning amal qilishini cheklab qo'yishi mumkin degan ma'noni anglatadimi?

Qonunlardan birortasi ham unga zid bo'lmasligi shart, chunki faqatgina Konstitutsiya oliy yuridik kuchga egadir. Qonun Konstitutsiya mazmunidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham iqtisodiyot va siyosatdagi o'zgarishlar natijasida qonun ham o'zgarishi mumkin.



Qonun — bu davlat tomonidan o'rnatilgan, odamlar o'rtasidagi eng muhim munosabatlarni tartibga solib turuvchi majburiy qoidalardir.

Bu kabi huquqiy normalarga rioya etilish mamlakat hududida yashab turganlarning barchasi uchun majburiydir. Qonunlarning hammasi birgalikda mamlakat **qonunchiligi** deb ataladi.



1-topshiriq.

Vaziyatlar bilan tanishib chiqing va savollarga javob bering:

1. Keltirilgan har bir vaziyatda kimning huquqlariga putur yetkazilgan?
2. Qonunning amal qilishi bilan insonning qaysi huquqlari cheklab qo'yilgan?
3. Ushbu cheklov nima sababdan zarur?

1. Fuqaro Usmonov ko'p qavatli uydan kvartirani mulk tariqasida sotib oldi va unda rangli shishadan turli buyumlar ishlab chiqarishni tashkil qildi. Bir qancha vaqtdan keyin qo'shnilardan bir necha nafarining salomatligi keskin yomonlashdi.

Ma'lum bo'lishicha, ular Usmonov mahsulot tayyorlash jarayonida ishlatgan og'ir metallarning tuzlaridan zaharlanishgan ekan. Sud qaroriga ko'ra Usmonovning odamlar yashaydigan uydagi tadbirkorlik faoliyati to'xtatildi.

2. Kabelli televideniye kanallaridan biri orqali zo'ravonlik va qotillik aks etgan filmlar muntazam namoyish etilar edi. Davlat organlari qaroriga ko'ra kanal egalari litsenziyadan (maxsus ruxsatnomadan) mahrum etildi.

3. Bir nechta shaxs saylovda ishtirok etganlarni kaltaklash tahdidi bayon qilingan varaqalar tarqatishdi. Ular hibsga olindi va sud qilindi.

4. Maktabni bitiruvchilar yarim kechasi odamlar yashaydigan uylar derazalari tagida baqirib-chaqirib ashula aytishdi. Ichki ishlar xodimlari ularni ushladi.

Fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzumni himoya

qilish jamoat tartibini, butun aholi salomatligi va axloqini muhofaza qilish, shuningdek, boshqa kishilar huquq va erkinliklariga rioya etilishi uchun qanchalik zarur bo'lsa, qonunlar bilan shunchaga cheklab qo'yilishi ham mumkin.

Davlat mavjud bo'lgan uzoq yillar davomida konstitutsiyaviy normalar barqaror qoladi, negaki ular butun jamiyat oliy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Qonunlar esa, basharti, iqtisodiyotning ahvoli, huquq-tartibotni muhofaza qilish zarurati talab etsa yoki yangi ijtimoiy muammolar vujudga kelsa, nisbatan qisqa muddatlarda o'zgarishi ham mumkin.



2-topshiriq.

Qadimgi rimliklar ushbu jumlani takrorlashni yaxshi ko'rishar ekan: «Qattiqqo'l bo'lsa ham qonun qonunda!» Ushbu jumlani qanday tushunasiz? Misollar keltiring.

Qonunlar qay tarzda yaratiladi?

Oliy Majlis – qonun chiqaruvchi oliy organ bo'lib davlatimiz hayoti uchun qonunlarni yaratadi va qabul qiladi. Ushbu jarayon qanday kechishini bilib olish uchun, keling, Oliy Majlis bo'ylab sayohat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 76-moddasida shunday yozib qo'yilgan:



«O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi».

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z saylovchilarining manfaatlarini ifoda etadi va mamlakat fuqarolari nomidan qonunlarni qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan tashkil topgan. Deputatlar besh yil muddatga saylanadi. Yilda kamida ikki marta Oliy Majlisning Qonunchilik palatasining barcha deputatlari o'z yalpi majlisiga – sessiyaga

yig'iladi. Unda qonunlar loyihalari har tomonlama muhokama qilinadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining katta zalini davlatimiz ramzlari bezatib turadi. Markazda minbarlar hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri va Spiker o'rinbosari uchun stollar o'rnatilgan. Zal zamonaviy aloqa vositalari bilan



jihozlangan. Elektron tabloda u yoki bu qonun loyahasini qabul qilish uchun qancha deputat qanday ovoz berganligi to'g'risidagi ma'lumotlar namoyon bo'ladi. Qonun loyihasi, basharti, uning qabul qilinishiga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning ko'pchilik deputatlari ovoz bersa, qabul qilinadi. Qonun, Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullangandan va unga Prezident imzo chekkanidan so'ng kuchga kiradi, ya'ni hamma tomondan ijro etilishi majburiy tus oladi. Qabul qilingan qonun albatta ommaviy axborot vositalarida chop etiladi. Oliy Majlisning o'z nashr organlari bor. Bular: «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetolari hamda «Oliy Majlis Axborotnomasi» jurnalidir.



Sizningcha, nega davlat mamlakatda qabul qilingan qonunlarni barcha fuqarolar bilishidan manfaatdor?

Qonunchilik tashabbusi huquqi

Mavjud qonunga o'zgartirish kiritish yoki yangisini ishlab chiqish to'g'risida kim taklif berishi mumkin? Bu savolga javobni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasidan topamiz:



«Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi».

Qonunni ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish va amalga kiritishning qat'iy tartibi qonunchilik jarayoni deb ataladi.



3-topshiriq.

Har bir o'quvchi o'zini erkin va xavfsiz his etishi uchun sinfingizda qanday qonunlar qabul qilish kerak? Guruhlarga bo'linib «O'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari to'g'risida»gi qonun loyihasini tuzishga harakat qilib ko'ring.

Sizningcha, basharti ushbu qonun maktabingizda qabul qilingudek bo'lsa, bu qonun qachondan kuchga kiradi?



1. Nima sababdan Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni deb ataladi?
2. Nima uchun davlat fuqarolar munosabatlarini tartibga solib turish uchun faqat Konstitutsiya matni

bilan kifoyalanmaydi, balki qo‘shimcha qonunlardan ham foydalanadi?

3. Qonunlardan tashqari yana nimalar insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini tartibga solib turadi?
4. Qaysi davlat hokimiyati organi mamlakatda vakillik organi deb yuritiladi?
5. Yangi qonunlar loyihalarini muhokama qilish uchun Oliy Majlisga taklif kiritishga kim haqli?
6. Qonun qaysi vaqtdan boshlab kuchga kiradi?
7. Qaysi hollarda qonunga tuzatishlar kiritiladi?



Uyga vazifa

Ba‘zan shunday bo‘ladiki, qonun odamlarga yoqmaydi, ammo kishilar uning talablarini bajaradilar. Sizningcha, kishilar nega shunday ish tutishadi?

- a) chunki qonunlarni buzmaslik odatga aylanib qolgan;
- b) jazodan qo‘rqishgani uchun;
- d) agar hamma qonunlarni buzaversa, unda hayot hamma uchun xavf-xatarlarga to‘la bo‘lib qoladi, deb hisoblashgani sababli.

Tanlab olgan javobingizni kundalik hayotdan misollar bilan asoslang.



Insonning asosiy huquqlari



1. Rasmdagi shaxslar qanday Konstitutsiyaviy huquq va burchlardan foydalanmoqdalar?
2. Ularning bu huquqlaridan foydalanishlari uchun mamlakatimizda qanday shart-sharoitlar yaratilgan?
3. Ularning bu huquqlari qanday hujjatlarda muhrlab qo'yilgan?

Yodingizda bo'lsa, 5-sinfda Konstitutsiya olami bo'ylab sayohat qilar ekanmiz, inson va fuqaroning huquq va erkinliklari haqida ancha so'z yuritgan edik. Yashashga, o'qishga, ishlashga, mulkka egalik qilishga, toza havodan nafas olishga haqli ekanligimiz borasida bizda shubha tug'ilmadimi? Endilikda bizga boshqacha bo'lishi mumkin emasdek tuyuladi: go'yoki har birimiz shunchaki inson bo'lganimiz uchun xilma-xil huquqlarga egamiz.

Aslida esa, hammavaqt ham shunday bo'lmagan. Odamlar o'z huquqlarining tan olinishiga birdaniga erishmaganlar. Hatto qadimgi zamonlarning eng ajoyib faylasuflari ham odamlar teng bo'la olmaydi, deb hisoblashgan. Quldorlik tuzumida quldorlar qul sifatida odamlarni sotishgan. Xo'jayin o'z qulini nafaqat jismonan jazolashga, uni yashashdan mahrum etishga ham haqli bo'lgan, negaki qul xo'jayinning mulki hisoblangan.

Faqatgina O'rtta asrlardan keyingi Ma'rifatchilik davriga kelib odamlar inson hayoti qimmatini anglab yeta boshladilar hamda tenglik va erkinlik ideallari uchun kurashish yo'liga kirdilar.



Shunday qilib, shaxsiy va siyosiy huquqlar insonning birlamchi huquqlariga aylandi, shu boisdan ularni **huquqlarning birinchi avlodi** deb atashadi. Bu huquqlar har bir inson shaxsiy erkinliklari va hayotiga, shuningdek, fuqarolarning jamiyat hayotidagi ishtirokiga daxldordir.

Insonning shaxsiy yoxud yuristlar ta'biri bilan aytganda, tabiiy huquqlari unga tug'ilganidanoq taalluqli bo'ladi. Bular — yashash huquqi, hurmat ko'rish huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi, shaxsi, turar joyi daxlsizligi huquqi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlarni sir saqlash huquqi, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi, fikr va so'z erkinligi, adolatli sudlov huquqi. E'tibor qilgan bo'lsangiz, huquqlardan ayrimlari erkinlik deb yuritilar ekan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VII bobi insonning tabiiy huquqlariga bag'ishlangan bo'lib, **«Shaxsiy huquq va erkinliklar»** deb nomlangan. Siyosiy huquqlarga esa u yoki bu mamlakat fuqarolarigina ega bo'lishadi. Siyosiy huquqlarga quyidagilar kiradi: jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida ijtimoiy faollikni amalga oshirish, kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga uyushish, davlat organlariga va xalq vakillariga ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi. Konstitutsiyamizning VIII bobi siyosiy huquqlarga bag'ishlangan.



1-topshiriq.

Quyidagi misollarni muhokama qiling.

1. Birinchi avlod huquqlarining qaysilaridan ko'proq foydalanasiz? Misollar keltiring.
2. Qaysi vaziyatlarda va kim tomonidan huquqlaringiz ko'proq buziladi? Ular huquqlarning qaysi avlodiga mansub?

3. Sizningcha, faqat shaxsiy va siyosiy huquqlargina qonunchilik tartibida mustahkamlab qo'yilgan jamiyatda inson baxtli bo'la oladimi? Nega? O'z fikringizni tushuntirib bering.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida inson huquqlarining birinchi avlodi ko'pgina taraqqiy etgan mamlakatlar Konstitutsiyalariga kiritildi. Ammo insonlar bu yetarli emasligini tushunib yetishdi. Hukumat ham, mansabdor shaxslar ham, oddiy fuqarolar ham mehnat qilish, o'z turar joyi, xususiy mulkiga ega-lik qilish, ta'lim olish, salomatligini muhofaza qilish, madaniyat yutuqlaridan foydalanish va ijod erkinligi huquqiga ega ekanligini bilishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar-ni har bir inson ixtiyoriga mustahkamlab qo'yish kerak edi. Shu alfozda kishilar **inson huquqlarining ikkinchi avlodiga — ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarga erishdilar.**



Insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlari **asosiy huquqlar** deb ataladi, negaki ular jahondagi deyarli barcha mamlakatlar Konstitutsiyalariga kiritilgan.



2-topshiriq

Guruhlarga bo'lining va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX — «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar» bobini o'qing. Nafaqat bir shaxs huquqlari hurmat qilinishini, balki butun bir xalqlar, sayyoramiz ahli ravnaq topishini kafolatlash uchun yana nimalarni qo'shimcha tariqasida kiritish xususida o'ylab ko'ring. Fikringizni o'rtoqlaringiz bilan o'rtoqlashing.

Xalqlarning huquqlari



1. Rasmlardagi har xil millat vakillarining mamlakatimizda baxtli yashashlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Sizing boshqa millatga mansub do'stlaringiz bormi? Sizing va o'sha do'stingizning huquqlaringiz bir xilligining sababi nimada deb o'ylaysiz?

Faqatgina XX asrning ikkinchi yarmida ko'pgina mamlakatlar yo'lboshchilari butun bir **xalqlar huquqlari** mavjud ekanligini e'tirof etish zarurligi haqida so'z yurita boshladilar, jumladan: o'z milliy madaniyati va tiliga ega bo'lish huquqi, suveren, mustaqil davlat tuzish huquqi, xalqlarning tabiiy boyliklarga egalik huquqi, xalqaro savdoda ishtirok etish huquqi. Xalqlar, shuningdek, tinchlik, xavfsizlik va ekologik jihatdan ozoda sayyorada yashash huquqiga ham egadirlar. Xalqlarning huquqlari **inson huquqlarining uchinchi avlodi** deb atala boshladi. Bu huquqlar u yoki bu mamlakat Konstitutsiyasiga alohida bob tariqasida kiritilmaydi, negaki ular yer yuzida yashovchi barcha odamlarga oiddir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1948-yil 10-dekabrda «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni qabul qildi. Mamlakatimiz ham unga qo'shildi, ya'ni xalqlar huquqlariga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Asosiy qonunimizning ko'pgina moddalari xalqlar huquqlariga rioya etilishi kafolatlariga bag'ishlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4- moddasida shunday deyiladi:



«O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

Asosiy qonunning XVII bobi to'raligicha O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangani ham O'zbekiston Respublikasining xalqlar xohish-irodasiga hurmatli munosabatining yorqin dalilidir.



1. O'zingiz tez-tez foydalanadigan birinchi, ikkinchi, uchinchi avlodga mansub huquqlardan misollar keltiring.
2. Sinfingizda, maktabingizda huquqlar bilan bog'liq qanday asosiy muammolar bor?
3. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar bajarilishini kimdandir talab qilish mumkinmi? Nega shunday deb hisoblaysiz?



Uyga vazifa

Ommaviy axborot vositalaridan O'zbekiston va boshqa mamlakatlar xalqlarining tinchlik, xavfsizlik va ekologik jihatdan ozoda sayyora uchun kurashda birgalikdagi harakatlari haqida hikoya qiluvchi material tanlab oling. Bolalar jahon xalqlari huquqlarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshira oladigan harakatlarni sanang.



Tenglik va tenghuquqlilik



1. Rasmda tasvirlangan odamlarni nima birlashtirib turadi deb o'ylaysiz?
2. Rasmlarda tasvirlangan insonlarning ayrimlari huquqlari boshqalarnikidan ko'proq bo'lganida qanday vaziyat yuz berishi mumkin edi?
3. Yuqoridagi mulohazalar yordamida insonlar teng huquqliligining ahamiyati va afzalliklari haqida fikr bildiring.



Biz qonunni hurmat qilish, unga bo'ysunish, rioya qilish yo'lidan borsak, istiqbolimiz porloq bo'ladi.

Konstitutsiya olamida bizni ko'plab odamlar qurshaydi. Baribir, ular orasida xuddi sizga o'xshashini topa olmasak kerak.

Nimalar bilan bir-birimizga o'xshashimiz, nimalar bilan bir-birimizdan ajralib turishimiz haqida o'ylab ko'rganmisiz?



1-topshiriq.

Daftaringizga jadval chizing va uni to'ldiring. O'zingiz va tavsiya etilgan guruh vakillari o'rtasidagi uchta o'xshash jihatni va uchta farqni sanang.

Kishilar guruhi	O'xshashlik	Farqlar
Oilam	men va oilam a'zolari o'rtasidagi uchta o'xshashlik	men va oilam a'zolari o'rtasidagi uchta farq
Do'stlarim	men va do'stlarim o'rtasidagi uchta o'xshashlik	men va do'stlarim o'rtasidagi uchta farq
Boshqa mamlakat odamlari	men va boshqa mamlakat odamlari o'rtasidagi uchta o'xshashlik	men va boshqa mamlakat odamlari o'rtasidagi uchta farq



1. Qaysi javoblaringiz bir xil?
2. Boshqa odamlardan qanday jihatlar bilan farqlanar ekansiz?
3. O'zgalarga o'xshamasligingiz boisidan sizga yomon muomala qilingan hollar ro'y berganmi?

Fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga egaligi prinsipi

Biz turli oilalarda dunyoga kelganmiz, qobiliyatimiz ham turlicha, tabiat bizga o'ziga xos tashqi qiyofa ato etgan. Biz, shuningdek, bir-birimizdan fe'l-atvorimiz, odatlarimiz va qiziqishlarimiz bilan ham farqlanamiz, ammo qonun oldida barchamiz tengmiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18- moddasida bu haqda shunday deyiladi:



«O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar».

Ushbu moddaning asosiy mohiyati va ma'nosi har birimiz tug'ilgan paytimizdanoq barcha yashab turgan yoki bizdan keyin dunyoga keladigan odamlar bilan teng huquqlarga ega bo'lishimizni anglatadi. Biz o'z-o'zimizga: «O'zga odamlar mendan farq qiladi, ammo biz qonun oldida tengmiz. Ularning huquq va erkinliklarini hurmat qilish asnosida men o'z huquq va erkinliklarimni himoya qilaman», – deyishimiz lozim.

Hech kim bizni huquqlarimizdan mahrum eta olmaydi. Boshqa insonlar bilan tengligimiz davlat huquq va erkinliklarni amalga oshirish uchun hammaga teng imkoniyatlar ta'minlaganligida namoyon bo'ladi. Ana shu imkoniyatlardan qay yo'sinda foydalanish esa o'zimizga bog'liqdir. Agar biz yaxshi o'qisak, o'z qobiliyat va iste'dodimizni kamol toptirsak, unda huquqlarimiz hayotda muvaffaqiyatlarga erishish bobida bizga ko'makchi bo'ladi.

Tenghuquqlilik prinsipi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» singari o'ta muhim xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan.



Aynan insonlarning tenghuquqliligi prinsipi — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining bosh g'oyasidir.

Ana shu deklaratsiyaning 2-moddasida jinsi, irqi, tili, kelgan mamlakati joki yurtidan qat'i nazar inson barcha huquqlar va hamma erkinliklarga ega bo'lishi lozimligi haqida so'z yuritiladi.

Qonun kamsitishdan muhofaza qiladi



2-topshiriq.

Insonlarning teng huquqlariga putur yetkazilishi yoki rioya etilmasligi bilan bog'liq harakatlarga yo'l qo'yilsa, nima sodir bo'lishini muhokama qiling. Har qaysingiz navbati bilan quyidagi jumladan boshlab fikrni davom ettirishingiz mumkin:

1. Agar maktab bufetida konfet faqat qiz bolalarga sotilsa, ...
2. Agar maktabda o'quvchilarga ularning ota-onalarining mansabidan kelib chiqib baho qo'yilsa, ...
3. Bordi-yu, faqat yaxshi o'qiydiganlarga ta'tilga javob berilsa, ...

Agar shunday hol yuz bersa, unda maktabda o'quvchilar huquqlarini turli alomatlar bo'yicha cheklab qo'yish, ya'ni diskriminatsiya (kamsitish) ro'y bergan bo'lardi. Kamsitish kimdir g'arazli tasavvur asosida ish ko'rganida va buning oqibatida boshqa kishilarga adolatsiz muomala qilgan paytda ro'y beradi. Deylik, Dilshod qiz bolalarning hammasini yomon sportchi deb hisoblaydi. Bordi-yu, Dilshod sport seksiyasiga faqatgina o'g'il bolalarni yozsa, qiz bolalarni kamsitgan bo'ladi. Demak, Dilshod qiz bolalarga adolatsiz muomala qilgan, ya'ni ularning huquqlarini poymol qilgan bo'ladi.



Kamsitish — kimgadir uning yoshi, millati, jinsi, jismoniy nuqsonlari va hokazo sabablarga ko'ra noteng muomala qilishdir.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19- moddasida shunday deb belgilanadi:



«Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas».

Basharti kimdir insonning huquqlarda tengligiga putur yetkazishga uringudek bo'lsa, unda mamlakat Konstitutsiyasi (43–45-moddalar) va qonunlari katta yoshdagi odam yoki bola, ayol yoki erkakligidan qat'i nazar barchani bunday tajovuzdan himoya qiladi.



1. Qonun oldida hammaning tengligi nima?
2. Qonun oldida hammaning tengligini isbotlash uchun qanday dalillarni keltira olasiz?
3. Bu prinsip qayerda mustahkamlab qo'yilgan?
4. Qonun oldida hammaning tengligini davlat qay tarzda ta'minlaydi?



Uyga vazifa

Kattalar (ota-onangiz, bobongiz, buvingiz, qo'shnilar)dan odamlarning kamsitilish hollariga duch kelgan vaziyatlar haqida so'zlab berishini iltimos qiling. Ularning javoblarni yozib oling.

Huquq tarixidan

Har qanday davlatning ajralmas ramzi — madhiya birinchi bo'lib Yaponiyada paydo bo'lgan. Uning matni IX asrda yozilgan edi.

Bu juda ham qisqa madhiya bo'lib, u to'rt qatordagina tashkil topgan. Yaponiya davlatchiligi tarixida birgina sulola hukmronlik qilganligi sababli ham bu madhiyaning umri uzoq bo'lgan.

SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLER

Beshinchi sayohat



YASHASH VA SOG‘LIQNI SAQLASH HUQUQI

Insonning yashash huquqi



Berilgan rasmlardagi tasvirlarning Konstitutsiyada o‘z ifodasini topgan yashash va salomatlikni muhofaza qilish huquqiga qay darajada bog‘liqligi borligini ayting?

Yashash huquqi inson huquqlari ro‘yxatida birinchi o‘rinda turadi. Yashash huquqi barcha qolgan huquqlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, agar inson hayoti doimiy tahdid ostida bo‘lsa, unda, masalan, ta‘lim olish huquqini yoki malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini ta‘minlash ham qiyin bo‘ladi.

Ushbu huquq ilk marotaba BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida

mustahkamlab qo'yilgan edi, jumladan, unda shunday deyilgan: **«Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir»**. Yashash huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasida mustahkamlab qo'yilgan:



«Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir».

Bu huquq davlatlar konstitutsiyalarida e'lon qilinishi — insoniyatning tarixiy yutug'idir. Tarixdan ma'lumki, qadimgi Spartada, masalan, Oqsoqollar Kengashi odat huquqi bo'yicha masalalarni hal qilgan. Ota-onalar chaqaloqni, basharti unda jismoniy nuqsonlar bo'lsa yoki vazni kam bo'lsa, qoyadan uloqtirib yuborishi shart bo'lgan. Qadimgi Rimda esa qullarga inson sifatida emas, balki buyumga qaragandek qarashgan. Qul qarib qolgani yoki bemorligi tufayli xo'jayinga naf keltirmay qo'ygani uni «tashlab yuborishgan» — maxsus joyga eltib ajal changalida qoldirib ketishgan. Rossiyada esa XVIII asrda krepostnoy dehqonlarni sotib olishgan, sotib yuborishgan, suratlariga yoki itlarga ayirboshlashgan, hattoki o'lgunicha kaltaklashgan.

Insonni yashash huquqidan mahrum etishni o'ta og'ir jinoyat tariqasida ta'riflagan Konstitutsiya davlat zimmasiga yashash huquqini barcha mavjud vositalar bilan kafolatlash majburiyatini yuklaydi.



1- topshiriq.

1. Kitoblar yoki filmlar orqali sizga ma'lum bo'lgan insonning yashash huquqiga putur yetkazilish hol-lariga misollar keltiring.
2. Ushbu hollarni guruhlarda muhokama qiling va ana shu holatlar bilan kurashish usullarini tavsiya eting.
3. Sizningcha, qaysi hollarda davlat o'z fuqarolari ha-yotini xatar ostiga qo'yishga haqli bo'ladi?

Qonunchilik inson hayoti himoyasida

Insonning yashash huquqini muhofaza qilishda jinoiy qonunchilik alohida o‘rin egallaydi. Inson o‘limiga olib keluvchi har qanday harakat jinoiy qonunchilikda jinoyat deb tan olingan.

Shunday qilib, davlat mamlakat aholisining o‘z hayoti va o‘z farzandlari hamda qarindoshlari hayoti borasida xotirjam bo‘lishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi shart. Yashash huquqini ta‘minlash — odamlar avariylar, kasalliklar, shuningdek, jinoyatchilar dastidan halok bo‘lmasliklarining oldini olish yo‘lida barcha ishlarni amalga oshirish demakdir.

Yashash huquqini ta‘minlash — birinchi navbatda davlat bola sog‘lom tug‘ilishi va rivojlanishi uchun, uning hayotiga biron-bir xavf-xatar tahdid solmasligi uchun barcha choratadbirlarni ko‘rish majburiyatini zimmasiga oladi deganidir.

Inson sog‘lig‘ini saqlash borasida g‘amxo‘rlik



Rasmlarda aks ettirilgan lavhalardagi insonlar mamlakat aholisining hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish uchun qanday g‘amxo‘rlik qilmoqdalar?

1. Rasmlarni izohlang.
2. Rasmlardagi tasvirlarda insonning qaysi huquqini ta‘minlash bo‘yicha davlat faoliyati aks etmoqda?

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan yashash huquqi davlatdan mamlakat aholisining

salomatligini muhofaza qilish bo'yicha sharoit yaratib berishni talab qiladi.

Sog'liqni saqlash muammosi hamma vaqt jamiyatning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan.



2-topshiriq.

1. Sizningcha, inson salomatligi borasida kim g'amxo'rlik qilishi lozim?
2. To'la ta'kidni tanlang:
 - Inson sog'lig'ini saqlash davlatning burchidir.
 - Inson sog'lig'ini saqlashga shaxsan o'zi mas'uldir.
 - Yuqoridagi ikkala fikr ham o'rinli.

Mamlakatimizda inson salomatligi borasida g'amxo'rlik u tug'ilmasidan ancha oldin boshlanadi. Insonni qurshagan atrof-muhitni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda, jismolan sog'lom insonni tarbiyalash uchun sharoit yaratilmogda. O'zbekistonda 1996-yili qabul qilingan «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi Qonunga muvofiq ish yurituvchi yagona sog'liqni saqlash tizimi yaratilgan. Qonun barcha muhtojlarni, xususan, bolalar, qariyalar va nogironlarni bepul davolash bilan ta'minlashni tartibga solib turadi. Hamma bolalar majburiy davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi va doimiy dispanser nazoratida bo'lishi lozim. Davlat aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash bo'yicha dasturlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlaydi, kasalxonalar qurilishi bo'yicha chora-tadbirlar belgilaydi. Bemorlarga xizmat ko'rsatish ikki yo'nalishda amalga oshirilmogda: davlat tomonidan bepul, ayni mahalda pullik xizmatlar tizimi ham rivojlanmogda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasi shunday kafolatlaydi:



«Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega».

Mustaqil O'zbekistonning dastlabki ordenlaridan biri «Sog'lom avlod uchun» ordeni bo'lib, onalik va bolalikni

muhofaza qilishda alohida xizmat ko'rsatgan shaxslar u bilan taqdirlanadi. Bolalar salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor beriladi.



1-topshiriq.

Bolalar hayoti va salomatligiga tahdid soluvchi narsalar ro'yxatini tuzing.



Quyidagi savollarni muhokama qiling:

1. Bola hayoti va salomatligini saqlash uchun ota-ona nima qilishi mumkin?
2. Davlat bola hayoti va salomatligini qay tarzda muhofaza qiladi?
3. O'smirning o'zi salomatligini qay yo'sinda mustahkamlashi mumkin?
 1. Yashash huquqi nima?
 2. Nega yashash huquqi fuqarolarning uzviy huquqi sanaladi?
 3. Yashash huquqini kim kafolatlaydi?
 4. Salomatlikni muhofaza qilish fuqarolarning huquqimi yoki majburiyatimi?
 5. Davlatning salomatlikni muhofaza qilish bo'yicha qaysi chora-tadbirlarini shaxsan o'zingizda his etdingiz?
 6. Sog'lom turmush tarzi nimani anglatadi?
 7. Bolalarning salomatlikni muhofaza qilishga bo'lgan alohida huquqi nimalarda namoyon bo'ladi?



Uyga vazifa.

Ommaviy axborot vositalaridan O'zbekistonda salomatlikni muhofaza qilish borasida qanday faoliyat amalga oshirilayotgani haqida material tanlab oling.

Oltinchi sayohat



ERKINLIK VA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQI

Erkinlik nima?



1. Rasmdagi bolalarning erkin ekanliklari nimalarda namoyon bo'lmoqda?
2. Ularga erkinlikni kim ta'minlab bergan?
3. Ularning erkinliklarini ta'minlash uchun davlat qanday chora-tadbirlar ko'radi?

Dunyoda kimgadir qaram bo'lishni istagan inson bo'lmaydi. Ko'pincha quloqqa shunday gap chalinib turadi: «Erkinlik — nima qilishni istasang, shuni amalga oshirish imkoniyatidir».



1-topshiriq.

1. Erkinlikka berilgan shunday ta'rifni ma'quullaysizmi?
2. Jumlani davom ettiring: «Erkinlik, men uchun — bu ...»

3. «Erkinlik» tushunchasini kichik rasmda tasvirlashga harakat qiling.
4. Erkinlik haqidagi tasavvuringizni tushuntirib bering.



Inson erkinligi — insonning biror-bir faoliyat bilan shug'ullanishga davlat tomonidan qonuniylashtirilgan imkoniyati, mamlakat aholisi uchun har xil cheklolarning bo'lmashligidir.

Inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga tug'ilgan kunidan boshlab ega bo'ladi.

Fuqaro o'ziga yoqqan xatti-harakatlarni birgina shart bilan, ular mamlakatda qabul qilingan qonunlarga zid bo'lmagan holatdagina sodir etishi mumkin.



«Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi»da 1789-yildayoq «Erkinlik boshqalarga ziyon yetkazmaydigan hamma ishni qilish huquqidan iboratdir», deyilgan edi.

Ya'ni har birimizning erkinligimiz mutlaq ham, chegaralanmagan ham bo'la olmaydi. Ana shu chegara qonun bilan belgilanadi.

Davlat erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini Konstitutsiya-ning maxsus moddalari va qonunlar yordamida ta'minlaydi.



2-topshiriq.

Sizningcha inson harakatlari erkinligini cheklovchi taqiqlorlar ro'yxatini tuzing.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson erkinliklari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligini e'lon qilgan. Bu, masalan, qonuniy asoslarsiz hibsga olish va qamoqda saqlashga hech kim haqli emasligini anglatadi.

Qonun bilan har birimizga o'zimizni qanoatlantirgan va shaxsiy erkinliklarimizni cheklab qo'ymaydigan xatti-harakatlar sodir etish huquqi berilgan. Biroq shaxs erkinligi umumiy qabul qilingan yurish-turish normalari doirasida va qonun asosida amalga oshirilishi lozim.



3-topshiriq.

Vaziyatni muhokama qiling.

Oila kechki ovqatni yeyapti. Qo'ng'iroq jiringladi.

— Kim?

— Militsiya?

Militsiya kiyimidagi kishi xonaga kirdi va xonadon sohibidan pasportini talab qildi. Pasportni cho'ntagiga soldi-da, dedi: «Qamoqqa olindingiz, kiyining».



Savollarga javob bering:

1. Ushbu holda qaysi shaxsiy huquqlarga putur yetkazildi?
2. Xonadon egasi qanday ish tutishi kerak?
3. Basharti qonun buzilgan bo'lsa, o'z huquqlarini himoya qilishi mumkinmi?

Insonning erkinlik huquqi

Ha, albatta, ushbu vaziyatda insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga putur yetkazilgan. Qonunga muvofiq, shaxs uch sutkadan ko'p ushlab turilmasligi shart. Ushlab turishga (vaqtincha ozodlikdan mahrum etishga) quyidagi mustahkam asoslar bo'lishi lozim:

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;

- 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bu huquqni 25-moddada quyidagicha mustahkamlab qo'ygan:



«Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas».

Voyaga yetmaganlar esa ushlab turilganda va hibsga olinganda alohida huquqlarga ega bo'lishadi. Ularni, qisqa muddatga ozodlikdan mahrum etish ham faqat istisno tariqasidagi hollarda qo'llanishi mumkin. Ushlangan o'smir katta yoshdagi ushlab turilganlardan alohida saqlanishi shart. Ushlash to'g'risida ota-onasiga xabar qilish majburiydir. O'smirlarni so'roq qilayotganda o'qituvchi, agar zarur bo'lsa, ota-onasi ishtirok etishini ham qonun talab qiladi.

Shaxsiy erkinlik va daxlsizlikka putur yetkazilgan taqdirda buzilgan huquqlarni tiklash uchun har bir kishida sudga murojaat qilish huquqi mavjuddir.



Rasmlarga qarab mazkur shaxslarning shaxsiy daxlsizlik huquqlari buzilishi mumkin bo'lgan holatlar haqida hikoya tuzing.

Shaxsiy daxlsizlik huquqi

Davlatning bosh g'oyasi sifatida shaxs erkinligi shaxs mustaqilligini, uning daxlsizligi himoya qilinishini taqozo etadi. Shaxs daxlsizligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan muhofaza etiladi:



«Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas» (26-modda).

Zo'rvonlik ishlatib qonunga xilof tarzda ozodlikdan mahrum etish erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka qarshi keng tarqalgan jinoyatlardan biridir. Odatda, bu narsa xohish irodasiga xilof ravishda insonni o'g'irlash va ushlab turishdir. Ko'pincha o'g'irlash jismoniy hamda axloqiy qiynoq va iztiroblarga solishga olib kelishi mumkin.



4-topshiriq.

Vaziyat bilan tanishing.

Oltinchi sinf o'quvchilari Salomat va Azim zerikib ketishdi. Ikkalasi bolakaylarning koptok o'ynashini kuzatishdi. Qiyshiq zarba berildi-yu, koptok yerto'la tuynugiga uchib kirdi. Albatta koptok izidan borish kerak. Bolakaylar borib yerto'laga tushishdi va koptokni qidira boshlashdi. Salomat va Azim hazillashmoqchi bo'lib yerto'la eshigini yopishdi, eshikka tikanakli sim chirmab tashlashdi, kula-kula uylariga ketib qolishdi.

Faqat yarim kechasi eshik taqillashini eshitgan bir o'tkinchi odamgina bolakaylarni chiqarib yubordi.



Savollarga javob bering:

1. Sizningcha, bolalarning huquqlari buzildimi?
2. Salomat va Azimning xatti-harakatini qonun nuqtai nazaridan qanday baholagan bo'lardingiz?
3. «Inson erkinligi» iborasini qanday tushunasiz?
4. Jamiyatda to'la erkinlik bo'lishi mumkinmi?
5. Nega qonun bilan inson faoliyatining erkinligiga cheklovlar belgilanadi?
6. Erkinlik huquqini amalga oshirishda voyaga yetmaganlarga davlat tomonidan qanday kafolatlar berilgan?
7. Insonning «shaxsiy daxlsizligi» nima?
8. Qaysi hollarda inson ushlab turilishi yoki hibsga olinishi mumkin?
9. Voyaga yetmaganlarni ushlab turish va saqlash shartlarini sanang.



Uyga vazifa.

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga putur yetkazilgan hollarga oid misollar keltiring. Siz hikoya qilib bergan kishilar muammoni qay tarzda hal etishgan?

Huquq tarixidan

Real voqelikka asoslangan birinchi detektiv hikoya Edgar Poning «Morg ko'chasi» bo'lib, u 1841-yilning aprelida chop etilgan. Undagi voqealar Parijda yuz beradi. Hikoyaning bosh qahramoni ajabtovur mesye Ogyust Dyupendir.



INSON SHAXSIY HAYOTI VA TURAR JOYI DAXLSIZLIGI HUQUQI

Inson sha'ni va qadr-qimmatini himoyasi



1. Rasmlardagi shaxslarning Konstitutsiyada o'z ifodasini topgan sha'ni va obro'si himoyasi to'g'risidagi huquqlari buzilishi mumkin bo'lgan hollarga misollar keltiring?
2. Inson huquqlarini himoya qilish yuzasidan o'z tavsiyalarinizi bering.

Hamma zamonlarning buyuk mutafakkirlari insonlarning sha'n va obro'sini saqlashga undab kelgan. Ma'lumki, ko'plab odamlar o'lim tahdid solib turganda ham o'z sha'nini saqlashni afzal ko'rgan. Sha'n va obro' — bu o'zini o'zi hurmatlash, o'z huquqlarini, o'z qadr-qimmatini anglab yetishdir.

Konstitutsiyaning 27-moddasida shunday yozib qo'yilgan:



«Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himo-
yalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega».

Xuddi shu haqda «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 12-moddasida ham so'z yuritiladi.

«Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ning 16-moddasida esa bolaning sha'niga, obro'siga va nufuziga tajovuzlardan himoyalanişga bo'lgan huquqlari ta'riflab berilgan.

Hayotda esa, afsuski, bolalarning qadr-qimmat va obro'siga putur yetkazish hollari anchayin ko'p uchrab turadi. Tajribalar bu narsa maktabda, uyda, ko'chada, jamoat joylarida ro'y berishidan dalolat beradi. Ammo bu holatlarning salmoqli qismi baribir maktabga to'g'ri keladi. Negaki bu dargohda bolalar ko'p vaqtini o'tkazishadi. Bir-biriga qaratilgan odatdagi xitoblar va haqoratomuz so'zlar ayrim maktablarda muomala normasiga aylanib qolgan. Ba'zi bolalar o'zlarini xo'rlangan va haqoratlangan his etishadi, ko'plar esa bu holga bamaylixtir munosabatda bo'ladi. Laqab orttirish, so'kinish, ba'zi o'smirlar fikricha, «o'g'il bolalik belgisi», deb qaralishini kuzatish mumkin.



1-topshiriq.

1. Sizningcha, nega bunday hollar ro'y berib turadi?
2. Katta odamlar bunday ahvolga qay tarzda munosabat bildirishlari lozim?
3. Ta'lim oluvchilar o'rtasidagi haqoratlovchi munosabatlardan holi bo'lish uchun nimalar qilishni taklif etgan bo'lar edingiz?
4. Bolalar o'z-o'zini qay tariqa himoya qilishi mumkin?

Shaxsning sha'ni va obro'sini himoya qilish yo'lda

Bo'hton, ya'ni inson haqida bir kishiga yoki bir qancha kishilarga yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish shaxsiy obro' huquqiga putur yetkazishning keng tarqalgan shaklidir. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarida bo'hton qilish katta ma'naviy ziyon yetkazadi.

Haqoratlash — kimgadir qaratilgan xunuk gaplarni og'zaki yoki yozma ravishda aytish yoki harakat (chakkasiga tarsaki tushirish va hokazo) — shaxs sha'ni va obro'sini xo'rlashdir.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari («Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks» va «Jinoyat kodeksi») kishilar sha'ni va obro'siga tajovuz uchun jarima ko'rinishidagi, ancha jiddiy hollarda esa, hibsga olib, ozodlikdan mahrum etishdek jazolarni belgilaydi.

Bolalar ixtiyorida ham o'z sha'ni va obro'sini himoya qilishning ko'plab yo'llari mavjud. Bunda sizga ota-onangiz, do'stlaringiz — sinfdoshlaringiz, o'qituvchilaringiz yordam berishlari va, albatta, o'zingiz ham huquqlaringizni himoya qilishni o'rganishingiz hamda o'zingizga nisbatan hurmatsizlarcha munosabatlarga javoban jimgina, indamay o'tib ketmasligingiz lozim. Ayni mahalda katta va kichik xatti-harakatlaringizda o'zingizni munosib va halol tutishingiz zarurligini ham unutmasligingiz kerak.

Agar sizni haqorat qilishlarini istamasangiz unda:



- o'zingiz boshqalarni qanday atashingizni bir tekshirib ko'ring;
- bir-biringizga faqat ismingizni aytib murojaat qiling;
- sizni laqab bilan chaqirishganda javob bermang.

Shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniish huquqi

Davlatimiz shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniishni kafolatlaydi. «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»ning 16-moddasida xuddi shu me'yor bayon etilgan. Insonning shaxsiy hayoti nima? Har birimizda hatto eng yaqin kishilarimizga aytilmaydigan ma'lumotlar va axborotlar bo'ladi. Qonun ularni siz saqlash huquqingizni himoya qiladi.



2-topshiriq.

1. Quyidagi harakatlarga baho bering, o'ylab ko'ring va ulardan qaysilari shaxsiy hayot daxlsizligiga putur yetkazilishiga misol ekanligini ayting:
 - ota-onangiz kundalik daftaringizni ko'rsatishingizni so'rashdi;

- begonalar xatingizni o'qidi;
 - sinfdoshlaringiz telefon orqali so'zlashuvingizni yashirincha eshitdi;
 - sinfdoshingiz portfelingiz va cho'ntaklaringizni tintib ko'rdi;
 - o'qituvchi muhokama qilinayotgan masala haqida fikringizni aytishni sizdan so'radi;
 - siz qiz bolasiz va ota-onangiz o'g'il bola bilan do'st bo'lishingizga izn bermadi;
 - tanaffusda sinfdoshingiz noningizni yeb qo'ydi.
2. Sizningcha, qaysi hollarda bolaning shaxsiy hayotiga aralashish sodir bo'lgan?

Har bir inson, shu jumladan, bolaning shaxsiy hayotiga unga tegishli bo'lgan hamma narsalari, buyumlari, turar joyi, shaxsiy va oilaviy ishlari kiradi. Bu esa hech kim sizning shaxsiy hayotingiz va shaxsiy ishlaringizga suqilib kirishi mumkin emasligini anglatadi. Pochtachi ham, qo'shnilar ham, boshqa biron-bir kishi ham sizning xatingizni o'qishga haqli emas. O'qituvchi ham sizning yozishmalaringizni o'qishi mumkin emas. Negaki shaxsiy kundaliklar, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar mazmunida sir mavjuddir. Bordi-yu, kimdir bolani farzandlikka olsa, farzandlikka olish siri qonun bilan kafolatlanadi. Biz o'z shaxsiy va oilaviy sirlarimizni shifokorga, advokatga, notariusga cho'chimasdan ishonib aytishimiz mumkin. Ishonchimiz komilki, bank sizning omonatingiz sirini saqlaydi. Bu odamlar va tashkilotlar davlat oldida sizning sirlaringizni oshkor qilmaslik majburiyatini zimmasiga olgan.

Turar joy daxlsizligi huquqi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi belgilaydi:



«Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas» (27-modda).

Turar joy daxlsizligi huquqi – hech kim uyingizga yoki xonadoningizga sizning taklifingizsiz yoki ijozatingizsiz kira olmasligini anglatadi. Baʼzan bu huquq qonun bilan cheklab qoʻyilishi mumkin. Masalan, inson jinoyat sodir etganlikda shubhalanilsa, uning oldiga qonuniy tintuv bilan kelishadi. Buning uchun sudyaning qarori lozim, yaʼni tintuv oʻtkazishga ruxsatnoma beriladi va tintuv oʻtkaziladi. Boshqa istalgan holda bu narsa qonunga xilof boʻladi. Koʻrib turibsizki, shaʼn va obroʻ, shaxsiy hayotingiz va turar joyingiz daxlsizligi huquqlari borasida qonun sizni himoya qilar ekan. Biz esa, oʻz navbatimizda, boshqa kishilarning shaxsiy hayoti daxlsizligini, shaʼn va obroʻsini hurmat qilishimiz lozim.



1. Shaxs shaʼni va obroʻsi deganda siz nimani tushunasiz?
2. Shaxsiy va oilaviy sir deganda nimani tushunasiz?
3. Turar joy daxlsizligi deganda nimani tushunasiz?
4. Ota-onalar bolaning shaxsiy hayotiga aralasha oladilarmi? Javobingizni asoslang.
5. Oʻqituvchilar bolaning shaxsiy hayotiga aralasha oladilarmi? Javobingizni asoslang.

Uyga vazifa



Sizning shaxsiy hayotingizga aralashilgan taqdirda himoya uchun murojaat qilishingiz mumkin boʻlgan tashkilotlar shahringiz, tumaningizning qayerida joylashganini bilib oling.



BIR JOYDAN IKKINCHI JOYGA KO'CHISH ERKINLIGI HUQUQI

Bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chish



1-topshiriq.

Qarindoshlaringiz yoki tanishlaringiz jonajon shahringiz yoki tumaningizdan qayerga va qaysi maqsadda ko'chib ketganini eslang. Jadvalni to'ldiring:

Kim ko'chib ketdi	Qayerga ko'chib ketdi	Nega ko'chib ketdi



1. Yaqinlaringizning ko'chib ketishi haqidagi qarorni kim qabul qildi? Ularning o'zimi yoki ularni kimdir ko'chib ketishga majbur qildimi?
2. Bunday qarorni o'zlari qabul qilgan bo'lsalar, u holda ular o'zlarining qanday konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanganlar deb o'ylaysiz?
3. Qaysi holatlar shaxslarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chish erkinligi huquqlarining buzilishiga olib keladi?

Konstitutsiya olamiga sayohat qilar ekanmiz, biz fikran turli mamlakatlarda, turfa qit'alarda bo'lib qaytdik. Aslida hayotda o'z shahridan yoki shaharchasidan hech qachon chetga chiqmagan odamni kamdan kam uchratamiz.

O'zbekiston Respublikasining ko'plab fuqarolari mamlakat hududidan tashqariga o'qishga, dam olishga chiqib ketadi, kimdir esa istiqomat joyini almashtirishga ahd qiladi.

Maktabni bitirgandan so'ng yoshlar qayerda o'qishni yoki ishlashni o'zlari tanlaydilar. Ko'pincha ular boshqa shaharga o'qishga yoki ishlashga ketadilar. O'zbekistonimiz hududida qiziqarli tarixiy joylar ko'p! Dam olish va davolanish uchun ajoyib sihatgohlar, turistik bazalar, pansionatlar, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari va boshqa joylar qanchadan qancha!

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida fuqarolarning quyidagi huquqi belgilab qo'yilgan:



«O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir».

Mazkur huquqni o'zining asosiy qonunida mustahkamlash bilan davlatimiz xalqaro normalarga sodiq ekanligini tasdiqladi. Xalqaro normalarda esa insonning bir joydan ikkinchi joyga ko'chish erkinligi har kimning tabiiy huquqi deb ataladi.

Mamlakatga kelish va undan chiqib ketish huquqi

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida «O'z mamlakatini ham qo'shgan holda istalgan mamlakatdan chiqib ketish va o'z mamlakatiga qaytib kelish huquqi»ni har birimizning ixtiyorimizga mustahkamlab qo'ygan.

Amin bo'ldingizki, O'zbekiston Respublikasining ko'pgina fuqarolari mamlakat hududidan tashqariga o'qishga, ishga, dam olishga chiqib ketishadi.

Biroq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida tilga olingan cheklashlar nima?



2-topshiriq.

1. Sizningcha, quyidagi fuqarolarga mamlakatdan chiqib ketish taqiqlanishi adolatdanmi, chunonchi:

— harbiy bazalar joylashgan yerni va ulardagi qurollarni bilgan shaxs;

- jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlab turilgan shaxs;
 - hujjatlarida sudlanganlik to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirgan shaxs;
 - sport yoki ilm-fan sohasida yuksak yutuqlarga erishgan shaxs.
2. Xo'sh, mamlakatdan tashqariga chiqib ketish uchun xohish-istakning o'zigina kifoya qiladimi?

Har qaysi davlat o'z mamlakati fuqarolari va ajnabiy fuqarolar uchun kelish va chiqib ketish tartibini mustaqil belgilaydi. Bordinyu, xorijda bo'lib qaytishni istasangiz, dastavval chiqib ketish vizasini rasmiylashtirishingiz zarur, viza esa bir davlatdan boshqasiga chiqib ketayotgan kishi o'z mamlakatida ishi sudda va tergovda emasligi hamda qonunga itoatkor fuqaro ekanligi



to'g'risidagi kafolatdir. Shundan keyin o'zingiz tashrif buyurmoqchi bo'lgan mamlakat elchixonasiga borasiz, o'sha mamlakatga kirish uchun viza — ruxsatnoma olasiz. Ayni mahalda mamlakatga qaysi maqsadda tashrif buyurayotganingizni va u yerda qancha muddat bo'lishni rejalashtirganingizni ko'rsatishingiz kerak. Chiqib ketish va kirish vizalarini rasmiylashtirishning bunday tartibi jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda amal qiladi. O'zbekiston Respublikasiga kelgan boshqa davlatlar fuqarolari ro'yxatdan o'tishlari shart.



3-topshiriq.

Quyidagi savollarni muhokama qiling:

1. Nega ko'pgina mamlakatlarga kirish uchun viza — ruxsatnoma bo'lishini talab qilishadi?
2. Nega mamlakatimizda ajnabiylarning ro'yxatdan o'tishi majburiy?

Fuqarolarni doimiy va vaqtinchalik ro'yxatga olish.

Qonunda mamlakatimizda har kim: fuqaro, ajnabiy, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar istiqomat joyida ro'yxatda turishi yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tishi nazarda tutilgan. Pasportdagi maxsus belgi «propiska» (istiqomat joyida ro'yxatdan o'tish) deb ataladi va zarur bo'lib qolgan taqdirda fuqaroni qaysi manzildan izlab topish mumkinligini anglatadi. Bolalar ota-onalari bilan birga istiqomat joyida ro'yxatga olinadi. Biroq, fuqarolardan biron-bir kishi, ishi tergovda bo'lgan yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslardan tashqari, mamlakat hududi bo'ylab bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chishi taqiqlanmagan. Chegara zonalar, harbiy bazalar, korxonalar bundan mustasnodir, albatta. Bu narsa davlat manfaatlarini va jamiyat xavfsizligini muhofaza etish, ishlab chiqarish faoliyatini, aholini himoya qilish bilan bog'liqdir. Propiska bir joydan ikkinchi joyga ko'chish erkinligini cheklab qo'ymaydi, ammo davlat organlariga o'z ishlarini rejalashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, muayyan bir aholi punktida yashab turganlar miqdoriga muvofiq ijroiya hokimiyati organlari aholining ehtiyojlarini ta'minlash uchun qancha maktab, bolalar bog'chasi, kasalxonalar qurishni, qancha yangi ish o'rinlari ochishni, nafaqalarga budjetdan qancha mablag' ajratishni, qancha ichimlik suvi, tabiiy gaz va boshqa narsalar kerakligini rejalashtiradilar. Propiska huquq-tartibotni muhofaza qilishda ham salmoqli rol o'ynaydi.



1. «Bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chish huquqi» iborasi nimani anglatadi?
2. Qaysi hollarda bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chish huquqi cheklab qo'yilishi mumkin?
3. Davlat qaysi maqsadda mamlakatga kelish va chiqib ketish vizali tartibotini o'rnatadi?
4. Respublikamizga xizmat safariga, mehmon bo'lib yoki turistik yo'llanma bilan kelgan MDH mamlakatlari fuqarolari mahalliy ichki ishlar bo'limlarida vaqtincha ro'yxatdan o'tishlari majburiydir. Sizningcha, nima maqsadda shunday qilinadi?



Uyga vazifa.

Uyda quyidagi jadval asosida so'rov o'tkazing va jadvalni to'ldiring.

	onam/ otam	buvam/ buvim	akam/ opam	men	do'stim/ dugonam
Sevimli gazeta					
Sevimli teleko'rsatuv yoki radioeshittirish					
OAVdagi eng qiziqarli mavzular					
OAVda qanday axborotlar yetishmaydi					

MUNDARIJA

KONSTITUTSIYA VA DAVLAT QONUNLARI

<i>Birinchi sayohat</i>	
Konstitutsiya – inson va fuqarolar huquqlari asosidir	4
<i>Ikkinchi sayohat</i>	
Qonun nima?	8
<i>Uchinchi sayohat</i>	
Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar.....	15
<i>To'rtinchi sayohat</i>	
Qonun oldida hammaning tengligi.....	20

SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

<i>Beshinchi sayohat</i>	
Yashash va sog'liqni saqlash huquqi.....	25
<i>Oltinchi sayohat</i>	
Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi	30
<i>Yettinchi sayohat</i>	
Inson shaxsiy hayoti va turar joyi daxlsizligi huquqi	36
<i>Sakkizinchi sayohat</i>	
Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish erkinligi huquqi	41

KOSTETSKIY V. A., TANSIQBOYEVA G. M., RAHIMOV R. I.

**KONSTITUTSIYA
OLAMIGA
SAYOHAT**

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
6-sinfi o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — Yangiyo'l poligraf servis — 2014

Nashriyot litsenziyasi AI № 185 10.05.2011 y.

Muharrir — *J. Azimov*

Texnik muharrir — *M. Riksiyev*

Sahifalovchi — *K. Kostetskiy*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 14.11.2014.

Bichimi 60x90¹/₁₆. «Arial» garniturası. Ofset bosma usulda bosildi.

Bosma tabog'i 3,0.

Nusxasi 50 000 (I zavod 20 000).

Buyurtma № 91-14.

«Yangiyo'l poligraf servis» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Samarqand ko'chasi, 44

K72

Kostetskiy V. A.

Konstitutsiya olamiga sayohat Q.1 : umumiy o'рта ta'lim maktablari-
ning 6-sinfi uchun o'quv qo'llanma / V. A. Kostetskiy , G. M. Tansiqboyeva ,
R. I. Rahimov - Toshkent : Yangiyo'l Poligraf Servis, 2014. - 48 b.

ISBN 978-9943-979-03-1

UO'K: 342.4(075)
KBK 67.400.1(50')